| Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....  | 769 |
| <b>Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna</b>  |     |
| Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni .....  | 778 |
| <b>Valiyeva Sayyora Xushbaqovna</b>   |     |
| Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....                           | 784 |
| <b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li</b>  |     |
| Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri .....  | 790 |
| <b>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi</b>  |     |
| Trade Marketing in the Era of Social Media: Strategies for Attracting and Retaining Customers Through Social Media Platforms.....       | 795 |
| <b>Mamatkulova Shoira Jalolovna</b>   |     |
| Mamlakatimiz to'qimachilik tarmog'ining zamonaviy holati va tendensiyalari.....   | 800 |
| <b>Azizzon Tillyaxodjayev</b>   |     |
| Physical Activity and Education, Trends in the Sports Industry .....  | 807 |
| <b>Axtamov Djamshed Baxromovich</b>   |     |
| Davlat moliyaviy nazoratining amalga oshirishning metodologik masalalari.....   | 812 |
| <b>Hakimov Nodir Nazarovich</b>   |     |
| Avtomobil yo'llari tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini tashkil qilishning o'ziga xos jihatlari..... | 818 |
| <b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>   |     |
| Inson kapitali indeksini oshirishda ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishlari .....  | 826 |
| <b>Akhmadalieva Nikholakhon</b>   |     |
| Global iqtisodiyot sharoitida bank inqirozlarining kelib chiqish sabablari va ularni boshqarish yo'nalishlari ....                      | 829 |
| <b>To'xtayeva Umida Shamsiddin qizi</b>   |     |
| Usovremenizovanie praktiki upravleniya inflatsiyey na primeire zaryubежnogo opыта.....  | 833 |
| <b>Нишанбаева Наргиза Боҳадировна</b>   |     |
| Sud-buxgalteriya ekspertizasini tayinlashning tashkiliy-huquqiy ta'minoti.....  | 837 |
| <b>Darvishov Sarvarbek Rustamovich</b>  |     |
| Mudofaa majmui va huquq muhofaza qilish organlari muassasalarini, tashkilotlari g'azna ijrosi .....                                     | 845 |
| <b>Fayzullayeva Zilola Ravshanovna</b>  |     |
| The Concept and Theoretical Foundations of Marketing Strategy in Regional Development.....  | 851 |
| <b>Diyorakhon Ibragimovna Kholmurotova</b>  |     |



|   |     |
|---|-----|
| Umumta'lim maktablarini moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari .....                                 | 857 |
| Turayev Ochil Yarashevich   |     |
| Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantishning konseptual asoslari .....       | 861 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna  |     |
| 15-sonli MHXS asosida bitim narxini aniqlash .....  | 869 |
| Toshpo'latova Munisabonu Ibrohim qizi   |     |
| Issiqlik ta'minoti xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi va sifatini baholash ko'rsatkichlari tizimi.....   | 873 |
| Abdulaziz Abdumo'minovich Matro'ziyev   |     |
| The Role of Local Budgets in Tax Policy .....   | 877 |
| Mukaddasova Gavxarxon Nodirxonovna  |     |
| Korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish negizida innovatsion muhitni shakllantirish asoslari. | 881 |
| Bobobekov Ergash Abdumalikovich   |     |
| Fermer xo'jaliklari samarali faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari va ularning tahlili.....        | 887 |
| M. Sh. Axmedova   |     |
| O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirishning institutsional va huquqiy asoslari .....         | 892 |
| Xudoyberdiyev Jamshid Juraboy o'g'li  |     |
| Global biznes muhitining korporativ boshqaruv tizimiga ta'siri.....   | 897 |
| Egamberdiyev Shuxrat Satimbayevich  |     |
| Sug'urta faoliyatida anderrayting xizmatini takomillashtirish .....   | 901 |
| Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich, Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich   |     |
| Qozog'iston sug'urta bozori tahlili .....   | 906 |
| Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich, Djalilova Malika Shuxratovna   |     |
| Tashqi savdoni tashkil etish va tartibga solishda merkantilistlar g'oyalaring tutgan o'rni .....            | 911 |
| Turayev Nurbek Muxammadovich  |     |
| Актуальные вопросы обеспечения экологической безопасности.....  | 919 |
| Исроилов Боходир Ибрагимович, Хасанов Ойбек Марданович  |     |
| Qo'shilgan qiymat solig'ini budjetdan qaytarish tartibini takomillashtirish .....                           | 923 |
| Qurbanov Muxiddin Abdullayevich   |     |
| Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....         | 927 |
| Ochilova Maftuna Toshpulat qizi   |     |
| Fermer xo'jaliklari samarali faoliyatini tashkil etishning asosiy omillari .....                            | 932 |
| M. Sh. Axmedova   |     |
| Bank xizmatlarini shakllantirish bo'yicha xorijiy ilg'or davlatlar tajribasi.....                           | 936 |
| Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li   |     |



# FERMER XO'JALIKLARI SAMARALI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILLARI

**M. Sh. Axmedova**

PhD, TDIU Statistika" kafedrasi d.v.v.b.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada fermer xo'jaligini tashkil etish va uning faoliyati jarayonida yuzaga keladishi mumkin bo'lgan muammolar yoritilgan, shuningdek, aytib o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun muallif tomonidan tavsiyalar berib o'tilgan. Bundan tashqari fermer xo'jaligi to'g'risidagi tushunchalarga oydinlik kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot tarmog'i, klaster, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari, resurslarni taqsimlash, o'simlikchilik, chovchachilik, moddiy-texnika omillar, shaxsiy omillar.

**Abstract:** In this article, the problems that may arise in the process of establishing a farm and its operation are highlighted, as well as recommendations are given by the author to eliminate the mentioned problems. In addition, the concepts of the farm were clarified.

**Key words:** economic network, cluster, multi-sectoral farms, distribution of resources, plant breeding, animal husbandry, material and technical factors, personal factors.

**Аннотация:** В данной статье освещены проблемы, которые могут возникнуть в процессе создания фермерского хозяйства и его эксплуатации, а также даны автором рекомендации по устранению упомянутых проблем. Кроме того, были уточнены понятия фермы.

**Ключевые слова:** экономическая сеть, кластер, многоотраслевые хозяйства, распределение ресурсов, растениеводство, животноводство, материально-технические факторы, личностные факторы.

## KIRISH

Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirishga qaratilgan izchil islohotlar iqtisodiy va ijtimoiy muhim resursi hisoblangan yer resurslaridan oqilona foydalanish va uning samaradorligini oshirish, mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, muhim iqtisodiyot tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligida yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish va sug'oriladigan ekin yerlarining unumdorligini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish, mintaqalar agroqlimiy resurslaridan samarali foydalanish, fermer xo'jaliklari yerlarini optimallashtirishda hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlарини hisobga olish, ko'p tarmoqli fermerchilikni rivojlantirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritishi uchun ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni egallagan yirik xo'jaliklardir. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishslash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, tabiiy sharoiti va demografik vaziyati turlicha bo'lgan hududlarda fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi va rivojlanish istiqbollariga yo'naltirilgan geografik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, turli hududlarda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari rivojlanishi uchun turli xil omillar asos bo'lib xizmat qilishi hech kimga sir emas.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR SHARI

Qishloq xo'jaligini iqtisodiy va geografik jihatdan nazariy-uslubiy o'rganish olib borgan xorijlik olimlardan I.G.Tyunen, K.I. Ivanov, V.G. Kryuchkov, K.I. Lapkin, A.M. Nosonov, A.N. Rakitnikovlarning bu borada haligacha muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan fikrlari o'z ishlarida keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligiga oid tadqiqotlar o'tgan asrning o'rtalarida professorlar Z.M. Akramov va A.N. Rakitnikovlar hamkorligida olib borilgan. Ular Zarafshon havzasida tashkil etilgan kompleks iqtisodiygeografik ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan va 1961-yilda ikki jildli "Samarqand va Buxoro viloyatlarining qishloq xo'jaligi geografiyası" nomli monografiyasini nashr ettirgan.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari turli hududlar misolida R. Xodiyev, Ye. Umarov, A. Ro'ziyev, S. Saidkarimov, T. Egamberdiyev, Yu. Ahmadaliyev, A. Xolmirzayev, M. Fayzullayev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Malakatimiz qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllari o'zgargan sharoitda, agroiqtisodiyot mahsulotlarini yetishtirishda o'ziga xos o'rninga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari ixtisoslashuvi va hududiy rivojlanishiga bag'ishlangan qator maxsus ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarining ixtisoslashuvi va hududiy tarkibini takomillashtirish uchun masalalar va yechish kerak bo'lgan muammolar tadqiq qilindi.

## TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani yoritishda O'zbekiston Respublikasi tomonidan sohaga doir qabul qilingan qarorlar, olimlarning adabiyotlari, ilmiy tadqiqot ishlari hamda yurtimiz doirasida ushbu sohaga aloqador statistik ko'satichklari analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqoslama kabi an'anaviy usullardan foydalangan holda tadqiq etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Fermer xo'jaligi - o'ziga uzoq muddatli ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

Fermerxo'jaligining asosiy vazifasi-Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, aholini iste'mol mollari bilan ta'minlash, moddiy resurslardan samarali foydalananish, tuproq unumdorligini oshirish, tejamkor texnologiyalarni amaliyatga joriy etish, atrof-muhit va ekologiyani yaxshilashdan iborat. Hozirgi kunda hukumat tomonidan shu sohani rivojlantirishga asosiy e'tibor berilib, qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib, amaliyatga keng joriy etilmoqda. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari ham huddi shunday tartibda tashkil etiladi. Lekin ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarining fermer xo'jaliklaridan farqi bor. Ya'ni fermer xo'jaliklari faqat o'simlikchilikka ixtisoslashgan bo'lsa, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari ham o'simlikchilikka ham chorvachilikka ixtisoslashgan hamda o'zi yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash xususiyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo'jaligining oladigan foydasi miqdorini oshirish - mavjud yer va suv resurslaridan foydalananida zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribalar, agrar ilm-fani yutuqlariga tayanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va boshqa xizmatlar ko'rsatish sohalariga investitsiyalar jalb qilish evaziga amalga oshiriladi. Demak, fermer xo'jaligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifaga aniqlik kiritib oldik. Bundan buyongi barcha tadbirlarimiz qo'yilgan asosiy maqsadni amalga oshirishga ko'maklashishi kerak bo'ladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharotida qishloq xo'jaligidagi tub iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jadallashtirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bo'lib, o'ziga alohida e'tibomi qaratishni talab etmoqda. Agrar sohadagi islohotlarni hayotga tatbiq etish jarayonida bugungi kunning talablariga to'la javob beradigan tashkiliy-huquqiy asosni yaratish, davlat mulkini xususiylashtirish, qishloqda iqtisodiyotni va agrar munosabatlarning butunlay yangi shakllarini joriy qilish borasida bir qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, ularga yangi rag'batlantiruvchi omillarni yaratib berish, dehqonlarning ong tafakkurida mulkka egalik hissiyotini mustahkamlash borasida ham e'tiborga molik ishlar qilinmoqda.

Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va boshqa shu kabi qo'shimcha tarmoqlarni yo'nga qo'yish orqali yangi ish o'rinnari yaratishda ularning ixtiyoriylik asosidagi o'zaro kooperatsiyasini yo'nga qo'yish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, yurtimizda oxirgi yillarda alohida e'tibor qaratilayotgan fermer xo'jaliklari tizimida joriy qilinayotgan klaster tizimlarini aytib o'tish joiz hisoblanadi. Klasterlash fermerlik sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari orasida hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan strategiyalardan biridir. Fermer xo'jalilarini klasterlash ishlab chiqarishni optimallashtirishga, mijozlari bilan yuqori darajada aloqa o'rnatish, tajribalar almashtish, sotish va marketing ishlari ustida ko'proq boshqaruv tajribasini jalb etishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, klasterlar yordamida



fermer xo'jalilarining moliyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa ko'pgina muammolarini hal qilish uchun tadbirkorlar va institutlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.

Fermer xo'jaliklarini klasterlash hozirgi kunda dolzarb hisoblangan quyidagi muammolarni hal etadi, jumladan:

- **Resurslarni taqsimlashning optimallashuvi:** bunda klasterdag'i bir nechta fermer xo'jaliklari sug'orish tizimiga ehtiyoj sezsa, resurslarni birlashtirish va xarajatlarni kamaytirish uchun birlashishadi.
- **O'zaro hamkorlikning kuchayishi:** klasterdag'i fermer xo'jaliklari ko'pincha umumiylar maqsad va manfaatlarga ega bo'lib, tadqiqot hamda bilimlarni o'rtoqlashish, ilg'or tajribalarni almashishlari yoki sotib olish kelishuvlarida hamkorlik qilish ehtimoli ko'proq bo'ladi.
- **Ixtisoslashuvni ta'minlash:** klasterdag'i fermer xo'jaliklari muayyan ekinlar yoki faoliyat turlariga ixtisoslashadi va ular faoliyati samaradorligi oshadi.
- **Siyosiy qarorlarni qo'llab-quvvatlash:** klasterlashtirish siyosatchilarga turli fermer xo'jaliklari duch keladigan muammolar va imkoniyatlarni tushunishga yordam berib, fermerlarning ehtiyojlarini yaxshiroq qondiradigan xuquqiy qarorlar ishlab chiqishga ko'maklashadi.
- **Marketing ishlarini osonlashtirish:** klasterlash fermer xo'jaliklariga ma'lum bir hududda ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun taniqli brend yoki o'ziga xoslikni yaratish orqali o'z mahsulotlarini yanada samaraliroq sotib, fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga iste'mol talabining oshishiga yordam beradi.
- **Raqobatbardoshlikni oshirish:** klasterlash orqali fermerlar bozorda raqobatbardoshligini oshirish uchun o'zlarining jamoaviy resurslari va tajribalaridan foydalanishlari mumkin. Ular birgalikda marketing harakatlardan, umumiylar infratuzilmadan va jamoaviy muzokaralar kuchidan foya olishadi.
- **Moliyadan foydalanish:** bunda yangi asbob-uskunalarga sarmoya kiritish, faoliyatini kengaytirish va bozorning yangi imkoniyatlardan foydalanishda yordam beradi.
- **Barqarorlikni yaxshilash:** fermer xo'jaliklarining klasterlashuvi tabiatni muhofaza qilish texnikasi, chiqindilarni kamaytirish va yerdan mas'uliyatli foydalanishga oid bilimlarni almashish orqali barqaror dehqonchilik amaliyotini rag'batlantiradi.
- **Munosabatlarning mustahkamlanishi:** fermer xo'jaliklarining klasterlashuvi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy hamjihatlikni rag'batlantirish orqali qishloqlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar orasida munosabarlarni mustahkamlaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, fermerlar faoliyatiga qator omillar to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va biz ularning ba'zilari haqida to'xtalib o'tamiz. Fermerning mehnat unumdarligiga ta'sir etuvchi omillar:

- Moddiy-texnika omillari (texnika jarayoni, tabiat resurslarining xarakteri, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish va boshqalar)
- Shaxsiy omillar, (xodimlarning ixtisos, malakasi, tadbirkorligi)
- Ijtimoiy mehnatning qanday tashkil qilinganligini ko'rsatuvchi omillar (ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish, ishlab chiqarishni kombinatsiyalashtirish, korxonalarda mehnatni bozor sharoitlarida shakllantirish)
- Tabiiy omillar (ob-havo sharoiti, suv, issiqlik temperaturasi va boshqalar) guruhiga bo'lish mumkin.

Fermer xo'jaligida mehnat unumdarligini oshirishda ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajriba yutuqlarini hisobga olgan holda intensiv rivojlanadi. Fermer ishlab chiqarishining fond va energiya bilan qurollanish darajasining orta borishi natijasida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqtiga tejaladi, mehnat sarfi kamayib har bosh chorvadan olinadigan mahsulot miqdori, har hektar ekin maydonidan olinadigan hosil miqdori ortib, oqibatda mehnat unumdarligi oshadi. Fermer xo'jaligida mehnat unumdarligini oshirish omillaridan biri ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashga o'tishni tezlashtirishdir.

Tuproq unumdarligini muntazam oshira borish, ko'plab qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sarflangan mehnat samaradorligini oshirishdir. Yerni muntazam ravishda mineral va organik o'g'it bilan o'g'itlash, sug'orilib dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini kengaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashsh, yuqori hosil beradigan ekin navlari hamda hayvon zotlarini yaratish va ishlab chiqarishda keng ko'lamma foydalanish, fan-texnika va agrotexnika talablariga to'la rivoja qilgan holda yerga ishlov berish va boshqa tadbirlar tuproq unumdarligi ortishiga, hosil ko'payishiga, mahsulot sifati yaxshilanishiga va oqibatda mehnat unumdarligi ortishiga olib keladi.



Chorvachilikda mehnat unumdorligining ortishi ko'p jihatdan mustahkam ozuqa bazasi yaratish va hayvonlarni ilmiy ratsion asosida boqishni tashkil etishga bog'liqdir. Mehnat unumdorligini oshirishda mehnat intizomini mustahkamlash ham muhim rol o'ynaydi. Mehnat intizomi buzilgan yerda ishlab chiqarishni yuksaltirish mumkin emas. Mehnat intizomini mustahkamlamasdan turib, kunlik ish meyorlari o'z muddatida bajarilmaydi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlarga amal qilgan holda, yollanma ishchilarni jalb qilish va ularga mehnat qonunchiligi bo'yicha haq to'lash tashkil etilishi lozim.

Fermer xo'jaligida mehnat intensivligini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida faqat jonli va buyumlashgan mehnatgina tejilib qolmasdan, sarflangan vaqt ham qisqaradi. Mehnat intensivligining o'sishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalilaniladi. Ish kunidan unumli foydalanishga erishish mehnatni ilmiy asosda meyorlash-tirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Mehnatni ilmiy asosda meyorlashtirish va meyorlarni takomillashtirish faqat mehnat resurslaridan to'la va unumli foydalanishiga emas, balki asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bugungi kunda ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy-texnik resurslarga ega emas. Bu qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlari bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biridir. Qishloq xo'jaligi rivojlanishi esa bevosita fermer xo'jaliklari faoliyatining rivojlanishi va ularning samaradorligiga bog'liq bo'lib, fermer xo'jaliklarida yerdan oqilona foydalanishni tashkil qilish, yer uchastkalarining optimal o'lchamlarini aniqlash va shu asosda ishlab chiqarishni tashkil qilish yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini yaxshilash va oshirishga yo'naltirilgan kompleks ishlarni amalga oshirish hamda fermer xo'jaliklari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Respublikamizda fermer xo'jaliklari rolining yanada oshib borishida, fermerlik harakati samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu farmonni chuqur tahlil qilish natijasida quyidagilarni tatbiq etilishini qo'llab quvvatlaymiz:

- qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish;
- fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- yangi imtiyozlar berish, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning manfaatlarini ishonchli himoya qilish masalaliga ham katta e'tibor qaratish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.08.2004-yildagi 662-II-son
3. X.K Mamarasulov, A.A.Tashmatov, "N.I.Djumabaeva Qishloqda biznes yuritishning moliyaviy-iqtisodiy tashkiliy jihatlari". – T: O'zbekiston, 2013.
4. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
5. Samatov G.A., Rustamova I.B, Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. – T.: ToshDAU taxririyat- nashriyot bo'limi, 2008. – 120 b.
7. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik.– S.: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004-y

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



## Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.